

LEKSIKOLOGIYA: TIL LUG'AT TARKIBINING TUZILISHI VA TARAQQIYOTI

Ishtemirova Jasmina Abdumalik qizi

Filologiya va tillarni o'qitish

(o'zbek tili)yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tilning lug'at tarkibi jamiyatning madaniy, ilmiy va ijtimoiy taraqqiyotini aks ettiruvchi muhim qatlam sifatida talqin qilinadi. Leksikologiya fanining mohiyati, uning tadqiqot obyekti va asosiy yo'nalishlari yoritilib, so'zlarning hosil bo'lishi, lug'at boyligining kengayishi, ma'nolarning o'zgarishi hamda nutqda qo'llanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, leksikologiyaning semasiologiya, fonetika, grammatika va stilistika kabi tilshunoslik bo'limlari bilan uzviy aloqasi ochib beriladi. Xususan, akademik Azim Hojiyev tomonidan ilgari surilgan so'z ta'rifi asosida leksik birlikning nutqdagi shakl va vazifalari, tovush qobig'i, grammatik ma'no va funksional imkoniyatlari ochib beriladi. Shuningdek, til lug'at tarkibining doimiy ravishda boyib borishi, so'z ma'nolarining tarixiy taraqqiyoti va semantik o'zgarishlari "domla", "rais" kabi so'zlar misolida izohlanadi. Maqola leksikologiya sohasida so'zning nazariy va amaliy jihatlarini yoritishga xizmat qiladi.

Kalit so'z: leksema, leksikologiya, semasiologiya, stilistika, leksika, polisemantik.

Til insoniyatning eng qadimiy va eng asosiy ijtimoiy hodisalaridan biri bo'lib, uning lug'at tarkibi jamiyatning madaniy, ilmiy va ijtimoiy taraqqiyotini aks ettiruvchi mazmunli qatlamidir. Har bir tilning lug'aviy boyligi o'sha xalqning dunyoqarashi, mentaliteti, tarixiy tajribasi, madaniy merosi va zamonaviy taraqqiyot darajasini ifodalaydi. Tilshunoslikning muhim va faol rivojlanyotgan bo'limlaridan biri-leksikologiya so'zlarning hosil bo'lishi, lug'at sostavining boyishi va nutqda ishlatilishi, ma'nolarning o'zgarishi, torayishi va kengayishi, turli terminlarning qo'llanishi kabi bir qator masalalarini qamrab oladi. Uning turli sohalari mavjud. Masalan, leksikologiyaning ma'no tomonini o'rganuvchi soha mavjud bo'lib, bu semasiologiya (grek sema "ma'no" yoki "belgi", logos - "ta'limot") den

ataladi. Leksikologiya tilshunoslikning fonetika, grammatika, semeasiologiya, stilistika kabi boshqa bo'limlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, tilning umumiy strukturasi va funksional xususiyatlarini chuqur anglashga xizmat qiladi. Shu sababli lug'at tarkibini nazariy va amaliy yondashuvlar asosida o'rganish ijtimoiy-madaniy omillar ta'sirida yuzaga kelayotgan yangi leksik birliklarni baholash zamonaviy tilshunoslik oldida turgan ustuvor ilmiy masalalardan biridir. Ushbu maqola leksikologiya fanining mohiyati, asosiy tadqiqot yo'nalishlari va o'zbek tilidagi leksik o'zgarishlarning ilmiy tahliliga bag'ishlanadi.

Leksikologiya - tilshunoslikning so'z va lug'at tarkibini tadqiq etuvchi bo'limi bo'lib, uning asosiy obyekti leksik birliklar hisoblanadi. Leksik birliklar nafaqat so'zlarni, balki turg'un birikmalar, iboralar va frazeologik birliklarni ham o'z ichiga oladi. Til lug'at tarkibi esa muayyan til doirasida mavjud bo'lgan barcha leksik birliklar majmuasidan iborat bo'lib, u tilning tarixiy rivoji davomida shakllanadi va boyib boradi. Til lug'at tarkibining tuzilishi tizimli xarakterga ega. So'zlar ma'no, shakl va qo'llanish xususiyatlariga ko'ra turli qatlamlarga ajratiladi. Jumladan, umumxalq leksikasi barcha nutq egalari tomonidan faol qo'llaniladigan so'zlardan iborat bo'lsa, ijtimoiy-chegaralangan leksika muayyan kasb, ijtimoiy guruh yoki hudud doirasida ishlatiladigan so'zlarni qamrab oladi. Bunday qatlamlanish til lug'at tarkibining ichki tuzilishini aniqlashda muhim mezon hisoblanadi.

Leksikologiya leksikani o'rganadi, leksika esa, o'z navbatida, so'zlardan yoki so'zlar majmuidan iborat bo'ladi. So'z haqida gap ketganda, ko'pincha, unga "asosiy til birligi" tarzida ta'rif beriladi. Lekin so'z aslida juda murakkab xususiyatga ega.

Ko'p vaqtlarga qadar tilshunoslikka oid adabiyotlarda so'zga uning boshqa hodisalardan farqini belgilovchi aniq mukammal ta'rif o'z aksini topmay kelayotgan edi. So'zga oid eng so'nggi ta'rifni akademik Azim Hojiyev berdi, unga ko'ra so'z: "Leksemaning nutqda muayyan shakl va vazifa bilan voqelangan ko'rinishi o'z tovush qobig'iga ega bo'lgan, obyektiv narsa-hodisalar haqidagi tushunchani, ular o'rtasidagi aloqani yoki ularga munosabatlarini ifodalay oladigan, turli grammatik ma'no va vazifalarida qo'llanadigan eng kichik nutq birligidir". Lug'at tarkibi doim

boyib, kengayib boradi, Masalan, eskirib qolgan soʻzlarni yangi maʼnoda qoʻllash yoʻli bilan ham tilning lugʻat tarkibi boyib turadi. Masalan, domla soʻzi (eski shakl domulla) eski maktab va madrasa oʻqituvchilari hamda diniy ayonlarga nisbatan qoʻllanardi. Hozirda esa, oʻqituvchilarga nisbatan hurmat bilan murojaat qilinganda ishlatiladi.

Rais soʻzi oʻtmishda diniy marosim va urf-odatlarining bajarilishini kuzatib boruvchi, shuningdek, oʻlchov va tosh tarozilarning toʻgʻriligini tekshirib boruvchi mansabdor kishi maʼnosini ifodalagan boʻlsa, hozir (mansab) idora va xoʻjalik tashkilotlarining rahbari, shuningdek, majlisni boshqaruvchi shaxs maʼnolarini ifodalaydi.

Soʻz maʼnosining rivojlanishi sifat va miqdor oʻzgarishiga, maʼnoning kengayishi va torayishiga, hatto tildan umuman tushib qolishiga okib keladi. Bunda jamiyat tarixining ahamiyati katta. Soʻzning leksik maʼnosi kengayishi natijasida koʻp maʼnoli (polisemantik) soʻzlar paydo boʻladi. Leksik maʼnoning torayishi soʻz maʼnosining kengayishiga nisbatan aks jarayonidir. Bunda soʻzning qoʻllanish doirasi chegaralanib qoladi. Soʻzlarning maʼno kengayish hodisasini "baxshi soʻzi timsolida chuqurroq tanishamiz. V.V. Bortoldning fikricha, baxshi (sanskritcha asli-bhikshu) leksemasi Sharqiy Turkistondagi uygʻur kotiblarga hamda uygʻurlar ichida yashagan buddist rohiblarga nisbatan qoʻllangan.

Xulosa oʻrnida taʼkidlash joizki, leksikologiya tilning lugʻat tarkibini tizimli ravishda oʻrganish orqali til va jamiyat oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikni ochib beradi. Til lugʻat tarkibi tarixiy va ijtimoiy jarayonlar taʼsirida shakllanib, ichki qonuniyatlar hamda tashqi omillar asosida muntazam ravishda rivojlanib boradi. Soʻz boyligining tuzilishi umumxalq leksikasi, terminologik qatlam, dialektal birliklar, shuningdek, eskirgan va yangi paydo boʻlgan leksik birliklar orqali namoyon boʻladi. Bu holat lugʻat tarkibining murakkab va koʻp qatlamli tizim ekanini koʻrsatadi. Leksik taraqqiyot jarayonida soʻz yasash, semantik oʻzgarishlar, sinonimiya va oʻzlashma soʻzlar muhim oʻrin tutadi. Ayniqsa, zamonaviy ilm-fan va texnologiyalar rivoji natijasida paydo boʻlayotgan yangi leksik birliklar tilning dinamik xususiyatini yanada kuchaytirmoqda. Shu bois leksikologik tadqiqotlar til lugʻat

tarkibidagi o'zgarishlarni aniqlash, ularning qonuniyatlarini belgilash hamda tilning hozirgi holatini ilmiy jihatdan baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.A.A.Abduazizov Tilshunoslik nazariyasiga kirish "Sharq" nashriyoti-matbaa Aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyat Toshkent-2010
- 2.Ibrohim Yo'ldoshev,O'lmas Sharipova Tilshunoslik asoslari Toshkent"Iqtisod-Moliya".2007
- 3.M.T.Irisqulov Tilshunoslikka kirish
- 4.Hojiyev.A Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati